



QORAQALPOG‘ISTONDA UZUMCHILIKNING STRATEGIK RIVOJLANISHINI BOSHQARISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Muallif: Tursunov To‘lqin Jo‘raqulovich ¹

Affiliyatsiya: Navoiy viloyati, O‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi boshliq o‘rinbosari, Toshkent davlat agrar universiteti mustaqil izlanuvchisi ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17564484>

ANNOTATSIYA

Maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasida uzumchilik tarmog‘ining rivojlanish holati va samaradorlikka ta’sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilingan. Tabiiy, iqtisodiy va texnologik omillarning ta’sir mexanizmi va darajasi 0–5 shkala asosida baholangan. Tadqiqot natijalari asosida sohani rivojlantirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: uzumchilik, samaradorlik, tabiiy omillar, texnologik yangilanish, qishloq xo‘jaligi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri sifatida strategik ahamiyat kasb etmoqda. U nafaqat aholini zarur oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, balki eksport salohiyatini kengaytirish, qishloq hududlarida bandlikni oshirish va mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

2024-yilda mamlakatda yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmi 444,6 trillion so‘mni tashkil etgani va oxirgi besh yilda 18,5 foizga o‘sgani sohada amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar samaradorligini yaqqol namoyon etmoqda. O‘rtacha yillik o‘sish sur’ati 103,5 foizni tashkil etishi esa qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanish tendensiyasi shakllanganidan dalolat beradi.

Hozirgi paytda O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi hajm va samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha mintaqada yetakchi o‘rinni egallab, Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘izistondan ilgarilab bormoqda. Bu holat mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi strategik pozitsiyasini mustahkamlash bilan bir qatorda, tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ham kuchaytirmoqda.

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan asosiy oziq-ovqat mahsulotlari hajmidagi barqaror o‘sish ham bu jarayonning amaliy ifodasidir: don ekinlari — 238,2 kg (+7,6%), kartoshka — 100,0 kg (+8,7%), sabzavotlar — 322,7 kg (+6,1%), meva va rezavorlar — 88,0 kg (+7,4%), uzum — 49,1 kg (+2,9%), poliz ekinlari — 72,2 kg (+17,2%), go’sht — 79,2 kg (+7,5%), sut — 334,8 kg (+4,9%) va tuxum — 236,9 dona (+2,4%)¹.

So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish, yangi qiymat zanjirlarini shakllantirish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga qaratilgan islohotlar ustuvor yo‘nalish sifatida rivojlanmoqda. Bu jarayonda uzumchilik sohasi milliy agrar iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida strategik ahamiyat kasb etmoqda.

¹ <https://daryo.uz/k/2025/03/25/ozbekistonda-yalpi-qishloq-xojaligi-mahsuloti-hajmi-5-yilda-185-foizga-osdi>

Uzumchilik nafaqat aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda, balki vinochilik, sharbatchilik va quritilgan meva sanoati kabi qo'shimcha yo'nalishlarning rivojlanishi orqali ichki bozor barqarorligi va eksport salohiyatini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston hududlaridagi turli tabiiy-iqlimiy sharoitlar esa uzumchilikni rivojlantirishda mintaqaviy modellarni yaratish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida uzumchilik sohasining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalarini o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki tabiiy resurslar yetishmasligi va quruq iqlim sharoiti mavjud bo'lishiga qaramasdan, oxirgi yillarda agrotexnologik yangilanishlar, davlat ko'magi va fermer xo'jaliklarining faolligi tufayli sohaning salohiyati izchil oshmoqda.

Qoraqalpog'istonda uzumchilikning rivojlanishi hudud qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, aholi bandligini oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash nuqtayi nazaridan strategik ahamiyatga ega. Shu bilan birga, qiymat zanjirining yuqori bosqichlariga integratsiyalash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash imkoniyati yuzaga kelmoqda.

Shu sababli, Qoraqalpog'istonda uzumchilik tarmog'ining hozirgi holatini ilmiy jihatdan tahlil qilish, uning hosildorlik dinamikasini o'rganish va samaradorlikka ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash muhim ilmiy vazifalardan biridir.

Bu jarayonni chuqur tahlil qilish uchun, avvalo, hududda so'nggi yillarda uzumchilik mahsulotlarini yetishtirish hajmidagi o'zgarishlarni raqamlarda ko'rib chiqish zarur. Zero, statistik ma'lumotlar asosidagi tahlillar sohadagi tendensiyalar, o'sish sur'atlari va mavjud salohiyatni baholash imkonini yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, quyidagi 1-jadvalda 2020–2024-yillar davomida Qoraqalpog'iston Respublikasida uzumchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi aks ettirilgan.

1-jadval

Qoraqalpog'istonda uzumchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi²

Yillar	Umumiy hosil	
	O'zbekiston Respublikasi bo'yicha jami, <i>mln. tonna</i>	Shundan; Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha jami, <i>ming tonna</i>
2020	1,6	10,2
2021	1,7	11,0
2022	1,8	11,5
2023	1,7	11,6
2024	1,8	14,4

Mazkur 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2020–2024-yillar mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasida uzumchilik mahsulotlari yetishtirish hajmi yil sayin barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Agar 2020-yilda hududda 10,2 ming tonna uzum yetishtirilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 14,4 ming tonnaga yetgan. Bu esa so'nggi besh yil ichida 41 foizlik o'sishni anglatadi.

O'zbekiston bo'yicha umumiy hosil hajmi ham barqaror o'sishda bo'lib, 2020-yilda 1,6 mln tonnani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 1,8 mln tonnaga yetgan. Bu holat mamlakat miqyosida uzumchilik mahsulotlariga bo'lgan talabning oshib

²O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

borayotganini va soha rivoji uchun yaratilgan iqtisodiy, texnologik hamda institutsional sharoitlar samara berganini ko'rsatadi.

Ayniqsa, Qoraqalpog'istonda so'nggi ikki yilda (2023–2024-yillarda) hosil hajmining sezilarli o'sishi kuzatilgan. Bu holat fermer xo'jaliklari tomonidan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, yangi navlarni yetishtirish va sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish natijasida amalga oshganligini anglatadi. Shu bilan birga, davlat tomonidan sohani qo'llab-quvvatlash, subsidiyalar va investitsiya loyihalarining kengayishi ham bu jarayonda muhim omil bo'lgan.

Demak, 1-jadval ma'lumotlari Qoraqalpog'istonda uzumchilik tarmog'ining barqaror o'sish bosqichiga kirganini, uning hudud iqtisodiyotidagi ahamiyati ortib borayotganini va kelgusida eksportbop mahsulotlar yetishtirish imkoniyatlari yanada kengayishini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, yuqoridagi ma'lumotlar Qoraqalpog'istonda uzumchilik tarmog'ining barqaror rivojlanish tendensiyasini namoyon etsa-da, hosildorlik va iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi bir qator omillar mavjudligini inkor etib bo'lmaydi. Mazkur omillar o'z tabiatiga ko'ra turli yo'nalishlarda namoyon bo'ladi — ayrimlari ishlab chiqarishni rag'batlantirsa, boshqalari esa uni cheklaydi yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Aynan shu nuqtayi nazardan, Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida uzumchilik samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy tabiiy, iqtisodiy va texnologik omillarni tizimli ravishda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi 2-jadvalda esa, ushbu omillar guruhlar kesimida tavsiflanib, ularning ta'sir yo'nalishi va mexanizmlari ilmiy jihatdan umumlashtirilgan holda keltirilgan.

2-jadval

Qoraqalpog'istonda uzumchilik samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar³

Omilar guruhi	Aniq omillar	Ta'sir yo'nalishi	Ta'sir mexanizmi	Izoh
Tabiiy	Qurg'oqchilik va suv yetishmasligi	Salbiy	Sug'orish uchun suvning yetishmasligi hosildorlikka salbiy ta'sir qiladi	Amudaryo va suv havzalari bilan bog'liq masalalar
Tabiiy	Tuproqning sho'rlanishi	Salbiy	Tuproqning sho'rlanishi o'simliklarning o'sishini cheklaydi	Cho'llashish jarayoni murakkablashtirmoqda
Iqtisodiy	Mehnat quvvati yetishmasligi	Salbiy	Terim va qayta ishlash jarayonlarida qiyinchiliklar	Mavsumda ishchi kuchi yetishmasligi
Iqtisodiy	Bozor narxlar va talab	Salbiy	Uzumni sotishdan tushadigan daromad kamayishi	Bozordagi noaniqliklar samaradorlikka ta'sir qiladi
Texnologik	Zamonaviy texnika va texnologiyalar yetishmasligi	Salbiy	Hosil yig'ish va qayta ishlash samaradorligi pasayishi	Fermer xo'jaliklarida texnik jihozlar yetishmaydi

Yuqoridagi, 2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Qoraqalpog'istonda uzumchilik samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar ko'p qirrali va o'zaro bog'liq xususiyatga ega. Birinchi navbatda, tabiiy omillar – qurg'oqchilik va suv yetishmasligi hamda tuproqning sho'rlanishi – tarmoqning barqaror rivojlanishiga jiddiy to'siq sifatida namoyon bo'lmoqda. Sug'orish uchun suv manbalariga bog'liqlik hosildorlik darajasini pasaytiradi, ayniqsa Amudaryo suvining sezilarli kamayishi sharoitida bu holat yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, tuproqning sho'rlanishi

³ Muallif tadqiqotlari asosida shakllantirilgan ishlanma.

va cho'llashish jarayoni uzumzorlarning biologik o'sishi hamda hosil sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy omillar qatorida mehnat quvati yetishmasligi va bozordagi noaniqliklar asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Mavsumiy ishchi kuchining yetishmasligi natijasida hosil yig'im-terimi kechikib, ayrim hollarda mahsulot yo'qotishlarga olib keladi. Shu bilan birga, bozor narxlarining o'zgaruvchanligi va talabning notekisligi fermer xo'jaliklarining iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa ularning investitsion faolligini ham cheklaydi.

Texnologik omillar ichida zamonaviy texnika va innovatsion texnologiyalar yetishmasligi uzumchilik tarmog'ining raqobatbardoshligini pasaytiradi. Aksariyat fermer xo'jaliklarida mexanizatsiya darajasi past bo'lib, hosil yig'ish, qayta ishlash va saqlash jarayonlarida yuqori mehnat sarfi kuzatiladi. Bu esa, mahsulotning tannarxini oshirib, foydalilik koeffitsiyentini pasaytiradi.

Umuman olganda, Qoraqalpog'istonda uzumchilik samaradorligini oshirish tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy sharoitlarni yaxshilash va texnologik yangilanishni jadallashtirish bilan uzviy bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, uzumchilikni rivojlantirish bo'yicha kompleks yondashuvni amalga oshirish — ya'ni suv resurslarini tejamkor boshqarish, agrotexnologiyalarni modernizatsiya qilish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish — hudud qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining barqaror o'sishi uchun muhim shart hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpog'istonda uzumchilik tarmog'ining samaradorligi ko'plab ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanmoqda. Tabiiy-iqtisodiy va texnologik shart-sharoitlar o'zaro bog'liq holda tarmoq rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq mazkur omillarning barchasi bir xil darajada ta'sir etmaydi — ayrimlarining ahamiyati ustuvor, ayrimlarining ta'siri esa nisbatan cheklangandir. Shu boisdan, uzumchilik samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning qay darajada ta'sir kuchiga egaligini baholash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Shunday ekan, quyidagi 3-jadvalda esa, Qoraqalpog'istonda uzumchilik samaradorligini cheklovchi asosiy omillarning ta'sir darajasi 0–5 shkala asosida baholangan bo'lib, ularning nisbiy ahamiyati va tarmoq rivojlanishiga ta'sir yo'nalishi tizimli ravishda ko'rsatib berilgan.

3-jadval
Qoraqalpog'istonda samaradorlikni cheklovchi omillarning ta'sir darajasi (0–5 shkalada)⁴

Omilar	Ta'sir darajasi	Izoh
Tabiiy sharoitlar (qurg'oqchilik, sho'rlanish)	5	Hosildorlikka eng katta ta'sir ko'rsatadi
Texnika va texnologiyalar	4	Zamonaviy texnika va uskunalar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi
Moliyaviy qo'llab-quvvatlash	3	Soliq yengilliklari, kredit va subsidiyalar samaradorlikni rag'batlantiradi
Mehnat quvati	3	Kasbiy malakali ishchi yetishmasligi past samaradorlikka olib keladi
Bozor va narx sharoiti	4	Uzum narxi va bozor talabiga bog'liq ravishda foyda o'zgarishi

⁴ Muallif tadqiqotlari asosida shakllantirilgan ishlanma.

Yuqoridagi 3-jadval ma'lumotlariga tayanilgan holda tahlil qilinganda, Qoraqalpog'istonda uzumchilik tarmog'ining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar ichida tabiiy sharoitlar (qurg'oqchilik va tuproqning sho'rlanishi) eng yuqori — 5 balllik darajada baholangan kuzatiladi. Bu holat, hududning iqlimiy xususiyatlari va suv resurslarining cheklanganligi uzumchilik rivojiga hal qiluvchi darajada ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi. Ya'ni suvning yetishmasligi, haroratning keskinligi va tuproqning unumdorlik darajasi hosildorlikning barqaror o'sishiga asosiy to'siq bo'lib turibdi.

Shu bilan birga, texnika va texnologiyalar omillari ham yuqori — 4 ball bilan baholangan. Bu ko'rsatkich fermer xo'jaliklarida zamonaviy agroteknologiyalarni joriy etish, avtomatlashtirilgan sug'orish tizimlaridan foydalanish va qayta ishlash jarayonlarini modernizatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi. Ilg'or texnika va texnologiyalardan samarali foydalanish hosildorlikni oshirish va resurs tejamkorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bozor va narx sharoiti ham 4 ball bilan baholanib, iqtisodiy samaradorlikning muhim tarkibiy qismi ekanligini tasdiqlaydi. Uzumchilikda foyda darajasi ko'p jihatdan bozordagi narx o'zgarishlari va eksport salohiyatiga bog'liq. Narxning barqaror emasligi va bozor talabining o'zgaruvchanligi ishlab chiqaruvchilar uchun ma'lum xavflarni keltirib chiqaradi, bu esa ularning investitsiya faolligini pasaytiradi.

Shuningdek, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va mehnat quvvati omillari 3 ball bilan baholangan bo'lib, ular ham tarmoq samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, kasbiy malakaga ega ishchi kuchining yetishmasligi, mavsumiy mehnat resurslariga bog'liqlik hamda moliyaviy manbalarning cheklanganligi uzumchilikning rivojlanish sur'atlarini pasaytiradi. Bundan tashqari, kreditlar va subsidiyalardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi, ayniqsa kichik fermerlar uchun, iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpog'iston Respublikasida uzumchilik samaradorligini oshirish uchun, avvalo, tabiiy va texnologik cheklovlarni kamaytirish, resurs tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish hamda moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish muhim ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi. Shu bilan birga, bozor infratuzilmasini takomillashtirish va mehnat salohiyatini rivojlantirish sohada barqaror o'sish va raqobatbardoshlikni ta'minlashning asosiy sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi tahliliy natijalardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, Qoraqalpog'iston Respublikasida uzumchilik tarmog'i qishloq xo'jaligining iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan strategik ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda hosildorlikning barqaror o'sishi agroteknologik yangilanishlar, fermer xo'jaliklarining faolligi hamda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan qo'llab-quvvatlash siyosatining amaliy samarasini aks ettirmoqda. Biroq tabiiy resurslarning cheklanganligi, tuproqning sho'rlanishi, texnik jihozlanish darajasining pastligi va bozor infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi sohaning kelgusi rivojlanishini muayyan darajada cheklab turibdi. Shu sababli, uzumchilikni barqaror va yuqori samarali tarmoq sifatida shakllantirish uchun tizimli, ilmiy asoslangan yondashuv talab etiladi.

Shu nuqtayi nazardan, amaliyot uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, Qoraqalpog'iston sharoitida suv resurslaridan samarali foydalanish va innovatsion sug'orish texnologiyalarini joriy etish uzumchilikning barqaror

rivojlanishi uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi. Buning uchun tomchilatib sug'orish tizimlari, avtomatlashtirilgan drenaj-monitoring usullari va raqamli agronazarot platformalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ikkinchidan, fermer xo'jaliklarini zamonaviy agrotexnika va qayta ishlash uskunalari bilan ta'minlash, shuningdek, agrosanoat klasterlari asosida logistika, qayta ishlash va saqlash infratuzilmasini shakllantirish zarur. Bu mahsulotning qiymat zanjirida yuqori qo'shimcha qiymat yaratish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi. Xususan, uzumchilik bilan shug'ullanuvchi kichik fermer va kooperativlarga imtiyozli kreditlar, qishloq xo'jaligi sug'urtasi hamda soliq yengilliklari taqdim etish orqali investitsiya faolligini kengaytirish mumkin.

To'rtinchidan, mehnat salohiyatini oshirish va kasbiy malaka darajasini yuksaltirish bo'yicha maxsus o'quv dasturlari va qayta tayyorlash markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu orqali ishchi kuchining samaradorligi oshirilib, mehnat unumdorligining barqaror o'sishi ta'minlanadi.

Beshinchidan, bozor infratuzilmasini takomillashtirish, raqamli marketing platformalarini joriy etish va eksportga yo'naltirilgan savdo tarmoqlarini rivojlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun yangi bozor imkoniyatlari yaratilishi lozim.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, Qoraqalpog'istonda uzumchilikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari — tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, innovatsion agrotexnologiyalarni tatbiq etish, moliyaviy rag'batlantirish tizimini takomillashtirish va bozor infratuzilmasini mustahkamlashdan iboratdir. Ushbu yo'nalishlarning izchil amalga oshirilishi esa, hudud agrar salohiyatining barqaror o'sishiga, qolaversa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga va mamlakatning eksportbop agrar iqtisodiyotini rivojlantirishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fayziyev O., Aminboyeva D. Qishloq xo'jaligida bioresurslar asosida mahsulot yetishtirishning iqtisodiy ahamiyati. Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences (May 2023). – Tashkent, 2023. – Volume 3. – Issue 5. – P. 164-167 (UIF = 8.3. SJIF = 5.961) (ISSN 2181-2853)
2. Tursunov T.J. Uzumchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari. «Muhandislik va iqtisodiyot». – Toshkent, 2025. - № 7. – B. 197-201.
3. Tursunov T.J. O'zbekistonda uzumchilikning oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri: muammolar va rivojlanish istiqbollari. "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot". – Toshkent, 2025. - № 7. – B. 502-507.
4. Tursunov T.J. O'zbekistonda uzumzorlar maydonining o'sishi va sohadagi transformatsiya jarayonlari. "Qishloq xo'jaligida innovatsion texnika va texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirishning muammo va yechimlari» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2024. 560-563 betlar.
5. Tursunov T.J. Uzumchilikda samaradorlikni baholashning ilmiy-nazariy asoslari va xalqaro tajribalar tahlili. «Agrobiznes, fan va texnologiyalar». – Toshkent, 2025. - № 7/[7]-son. – B. 448-458.

6. Tursunov T.J. O'zbekiston uzumchilik tarmog'i: iqtisodiy ahamiyati, hududiy dinamikasi va rivojlanish istiqbollari. In Solution of social problems in management and economy (Vol. 4, Number 11, pp. 50–56). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.16867476>

7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy sayti ma'lumotlari. stat.uz

8. <https://daryo.uz/k/2025/03/25/ozbekistonda-yalpi-qishloq-xojaligi-mahsuloti-hajmi-5-yilda-185-foizga-osdi>

